

UO‘T:633.51:631.811.131.

## MAXALLIY VA XORIJIY STIMULYATORINI G‘O‘ZA KASALLIKLARIGA TA‘SIRI

**F.Shamsitdinov** v.b. dotsent (SDVMCHBU Toshkent filiali)

Fazliddin Shamsitdinov@ gmail.com

Mobel raqami 99899-271-40-72

**Annotatsiya:** Namangan viloyatini och bo‘z tuproqlari sharoitida, maxalliy Uzgumi stimulyatorini ekish oldidan chigitga 0,7 l/t, shonalash-gullash davrlarida 0,3-0,4 l/ga qo‘llanilganda, Uzgumi va NaIe stimulyatorlari 2,1-1,1 foizga kamroq kasallanganligi kuzatildi hamda qo‘shimcha 2,8 s/ga paxta hosili olinishishiga erishildi.

**Kalit so‘zlar:** Naykl, Uzgumi, stimulyatorlar, chigitni unib chiqishi, o‘simlik bo‘yi, hosil shoxi, shona, gul, ko‘sak, barg, paxta hosili.

**Абстрактный:** На светло-серых почвах Наманганского региона при внесении местного стимулятора Узгуми в семена перед посадкой из расчета 0,7 л/т, а в периоды бутонизации и цветения — из расчета 0,3-0,4 л/га, было отмечено, что стимуляторы Узгуми и Наклье на 2,1-1,1% менее восприимчивы к заражению, и получен дополнительный урожай хлопка в 2,8 т/га.

**Ключевые слова:** NaIe, Узгуми, стимуляторы, прорастание семян, высота растения, ветвь растения, колос, цветок, початок, лист, хлопковая культура.

**Abstract:** In the light gray soils of the Namangan region, when the local Uzgumi stimulator was applied to the seeds before planting at a rate of 0.7 l/t and during the budding and flowering periods at a rate of 0.3-0.4 l/ha, the Uzgumi and NaIe stimulators were observed to be 2.1-1.1% less susceptible to infection and an additional 2.8 t/ha of cotton yield was achieved.

**Key words:** NaIe, Uzgumi, stimulators, seed germination, plant height, crop branch, cob, flower, boll, leaf, cotton yield.

### Kirish

Respublikamiz agrar sohasida islohatlar ko‘lamini kengaytirish iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mamlakatimizda oziq-ovqat xavf-sizligini ta‘minlash, axolining asosiy turdagi oziq-ovqat maxsulotlariga bo‘lgan extiyojini qondirish, fermer xo‘jaliklari ustvor xo‘jalik yuritish shakli sifatida samarali faoliyat ko‘rsatishni ta‘minlash va boshqa yo‘nalishlarda tizimli xamda maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu kabi sa'y-harakatlar natijasida respublikamiz hududlarida yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti miqdori barqaror o'smoqda. Ammo, aksariyat dehqon va fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi ekinlarinig hosildorligini oshirish, yetishtirilayotgan xom ashyo tannarxini kamaytirish, sifatini yaxshilash hisobiga daromadni keskin ko'paytirish uchun foydalanilmayotgan ichki va tashqi zahiralari ko'p. Bunday zahiralarni izlab topib, ulardan tobora unumliroq foydalanish harakatini izchil yo'lga qo'yish lozim.

Ma'lumki, fermer va dehqon xo'jaliklari ichki va tashqi bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda asosiy xo'jalik sub'ektlari hisoblanishadi. Ular o'rtasida aholiga ertagi, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berish harakati yildan-yilga kuchayib borayotganligini e'tirof etish kerak.

Shu bilan birga ta'kidlash joizki, bu toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish, sifatini yaxshilash, ularning yetilish va pishish muddatlarini tezlashtirish orqali ichki va tashqi bozorga, xalqimizga ekologik sof mahsulot, eng asosiysi, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish harakati keng quloch yoyish lozim. Buning uchun tajribalarda sinalgan va ijobiy natijalar bergan, keng ko'lamda qo'llanilayotgan biologik va kimyoviy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Turli xil stimulyatorlar bilan ko'pgina olimlarimiz ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borgan bulardan Q.Mirzajonov, A.Imommaliyev, U.Madramimov, Sh.Abdualimov va boshqalardir.

Ko'pgina adabiyotlardan ma'lumki, o'simlikning bargida kechadigan fotosintez jarayonida noorganik moddalarning yorug'lik, issiqlik, suv va boshqalar ta'sirida organik moddalarga aylanishi dunyodagi barcha jonzorlar uchun kislorod va ozuqa manbai bo'lib hisoblanadi. Barg plastinqasi asosan hloroplastlardan iborat bo'lib, hloroplastlar hlorofill donachalari bargga yashil rangni berib turadi. Barg o'z navbatida yorug'lik, suv va ildizdan kelayotgan ozuqa alardan foydalanadi.

**Tajriba o'tkazish uslublari.** Yangi urug'dori stimulyatori biologik, fizologik faol moddalar, NACIe preparati Buxoro-102 g'o'za navidagi biologik samaradorligini o'rganish maqsadida, Namangan tajriba stansiyasining, och tusli bo'z tuproqlari sharoitida tadqiqotlar olib borildi. Tajribada stimulyatorlar bilan chigitga ekish oldidan ishlov berilib, nazoratga nisbatan, Uzgumi va NACIe preparati taqqoslab o'rganishni oldimizga maqsad qilib oldik. Dala tajribalarida fenologik kuzatuvlar va hisob-kitob ishlari O'zPITIda qabul qilingan "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" [1] va "O'simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot asoslari". [2]. uslubiy qo'llanmalariga muvofiq olib borilgan.

Tajriba dalasi tuprog'i azaldan sug'orib dehqonchilik qilib kelinayotgan mexanik tarkibi och tusli bo'z tuproq bo'lib sho'rlanmagan, yer osti suvlari sathi chuqurligi (8-10 m) joylashgan. Ball boniteti 60 ballni tashkil etgan dala maydonlarida olib borildi.

Tajriba dalasida tadqiqot ishlari 3 ta variantdan iborat bo'lib, 3 qaytariqda, 1 yarusda joylashtirildi. Ekish sxemasi 60x15-1 tartibda joylashtirildi. Tajriba bitta bo'lakchasining umumiy maydoni 312 m<sup>2</sup> (2,4 x 130 m), hisob maydoni 156 m<sup>2</sup> ni tashkil qildi (1,2 x 130 m).

**Tadqiqot natijalari.** G'o'za nihollarini, gommoz va ildiz chirish kasalliklari bilan kasallanishi E. Ochilov, N. Qashqarov «O'simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot asoslari» uslubnomasi asosida tekshirilib borildi.

Tajriba bo'lakchalarida g'o'za nihollari to'la unib chiqqandan keyin, urug' barglarda gommoz va ildiz chirish kasalligi kuzatib borildi

### 1-jadval

#### Ildiz chirish kasalligi

| № | Tajriba variantlari | Chigit ekish oldidan ishlov berish, l/t | Ildiz chirishi, % | Gommoz kassalligi, % |
|---|---------------------|---|-------------------|----------------------|
|   |                     |   | 10.05             | 5.06                 |
| 1 | Nazorat             | -                                       | 6,1               | 9,3                  |
| 2 | Uzgumi              | 0,7                                     | 4,0               | 4,7                  |
| 3 | NacIe               | 4,0                                     | 5,2               | 11,0                 |

Dastlabki kuzatuvlarda yosh nihollar ildiz chirish kasalligi bilan zararlanganligi aniqlandi. Ammo, gommoz bilan zararlanishi deyarli kuzatilmadi. Ildiz chirish kasalligi bo'yicha tahlil qilib chiqqanimizda, ekish oldidan chigitlarni stimulyatorlar bilan dorilgan variantlar ildiz chirish kasalliklari bilan kam zararlanganligi kuzatildi. Nazoratda 6,1 foiz Uzgumi 4,0 foiz, NacIe 5,2 foizni tashkil etdi. Nazorat variantiga nisbatan ildiz chirishi Uzgumi va NacIe stimulyatorlari ekish oldidan 0,7-4,0 l/t ishlov berilganda 2,1-1,1 foizga kamroq kasallanganligi kuzatildi.

Iyun oyining birinchi o'n kunligida yog'in miqdori 19,0 mm. ni tashkil etib, ko'p yillikka nisbatan 11 mm ko'proq yomg'ir yoqqanligi aniqlandi. Bu esa tuproqdagi potogenlarni jadallashiga olib keldi. Buning natijasida g'o'zaning gommoz kasalligi bilan zararlanishi keskin ortib ketdi. 5-iyunda gommoz bilan zararlanishi qayta kuzatuv olib borilganda nazoratda 9,3 foiz, Uzgumida 4,7 foiz, NacIe 11,0 foizni tashkil etdi. Bu esa nazorat variantiga nisbatan Uzgumida 5,4 foizga kamroq kasallanganligi kuzatildi. Ammo, NacIe preparati nazorata nisbatan 2,3 foizga ko'proq kasallanganligi kuzatildi.

Paxta hosilining olingan natijalarni tahlil qilib chiqqanimizda stimulyator qo'llanilgan variantlarda g'o'za hosildorligini sezilarli darajada oshirganligi ma'lum bo'ldi. Nazorat variantida 31,5 s/ga, Uzgumi 34,3 s/ga, NacIe 31,6 s/ga ni tashkil etdi.

Nazoratga nisbatan qo'shimcha hosil Uzgumi 2,8 s/ga, Nacle esa 0,1 s/ga ni tashkil etdi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Mahalliy va xorijiy stimulyatorlarni o'rta tolali Buxoro-102 g'o'za naviga chigitga hamda amal davrida har xil me'yorlar qo'llanilganda eng yuqori ko'rsatki mahalliy Uzgumi stimulyatorida kuzatildi. Provaridida paxtadan 2,8 s/ga qo'shimcha hosil olishga erishildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. O'zPITI. T.: 2007. 147 b
2. Ochilov E., Qashqarov N. O'simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot asoslari. - Andijon, 1997. -B.79-80.
3. Boboxo'jaev I., O'zoqov P. Tuproq gumusining hosil bo'lishi haqidagi asosiy nazariya. Tuproqshunoslik. 1995. -B. 87-121.
4. Mamasoliev M, Abdualimov Sh., Maxsadov X., Izbasarov B. Jizzax viloyatining kam sho'rlangan tuproqlari sharoitida Uzgumi stimulyatorining g'o'za hosildorligiga ta'siri // Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi sohasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari. ToshDAU va PSUEAITI maqolalar to'plami 2-qism. -Toshkent, 2015. -B 328-330.